

## O'ZBEK TILIDAGI TO'Y BILAN BOG'LIQ LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TAHLILI

**Mahammadova Durdona Akmaljon qizi**

**O'zbek tili va adabiyoti 1- kurs talabasi**

**Nigora Raxmatullayeva Erkinpo'latovna**

**University of Business and Science oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15694641>**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlaridan sanaluvchi lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchalari haqida so'z yuritiladi. Til birliklarini lingvomadaniy tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, antroposentrik paradigma, lingvokulturema, olamning lisoniy manzarasi.

**Аннотация:** В данной статье говорится об основных понятиях языкознания и культурологии, которые рассматриваются с направлений антропоцентрической лингвистики. Освещены специфические аспекты лингвокультурологического анализа языковых единиц.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, антропоцентрическая парадигма, лингвокультурема, языковой картина мира.

**Abstract:** This article talks about the main concepts of linguistics and cultural studies, which are considered from the directions of anthropocentric linguistics. Specific aspects of linguistic and cultural analysis of language units are highlighted.

**Key words:** linguocultural studies, anthropocentric paradigm, lingvokulturema, linguistic landscape of the world.

Lingvokulturologiya fanning maxsus sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikka bir qancha tushunchalarni olib kirdi: lingvokulturema, madaniy til, madaniy matn, madaniy kontekst, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniyatning pretsedent nomlari, madaniyatning ochuvchi tushunchalari, madaniy universalisiya, madaniy kompetensiya, madaniy meros, madaniy an'analar, madaniy jarayon, madaniy qoidalar, mentalitet, mentallik, rasm-rusum, odam, marosim, madaniy makon, madaniy tip, tamaddun (sivilizatsiya) kabi.

**Lingvokulturema** terminini fanga V.V.Vorobyov tomonidan kiritilgan. Lingvokulturema sathlararo kompleks birlik bo'lib, o'z mazmunida lisoniy va nolisoniy (tushunchaviy yoki predmetlik) ma'noning dialektik birligini ifodalaydi. V.V.Vorobyov lingvokulturemani til belgilari shakllari, ularning mazmuni hamda madaniy ma'nosi yig'indisi sifatida tushuntiradi.

Lingvokulturemalarni tushunish uchun kerak bo'ladigan muhim ma'no sifatida u mazmuni elementi bo'lib imkon sifatida turuvchi tub ma'noni ko'rsatadi. Bu termin hali to'liq shakllantirilmagan yoki o'rganilmagan. Jumladan, unga til belgisidagi madaniy axborot qanday va qaerda birikadi, tilda qanday joriylanadi kabi masalalar ochiqlicha qolmoqda. Biroq uning til birligida mavjudligi haqidagi faktlar V.Gumboldt davridan buyon keltiriladi.

**Lingvokulturema** ayrim adabiyotlarda **lingvomadaniy birliklar** deb ham ataladi. Lisoniy va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topgan, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo'livchi til birliklari **lingvomadaniy birliklar** hisoblanadi

Lingvomadaniy birliklarga frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg'un o'xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimlarga doir so'zlar, topishmoqlar, milliy

realiyalar, arxitepllar, mifologemalar, lakunalar, presedent birliklar va boshqalar kiradi,<sup>1</sup> Demak, urf-odat, marosimlarning nomlari – **etnografizmlar** ham lingvomadaniy birliklardir. Masalan, bayram bilan bog'liq etnografizmlar ham lingvomadaniy birliklarning yorqin namunasidir. O'zbek xalqida *iydlik // hayitlik berish, hayit, hayitlik* etnografizmi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

*Iydlik.* Hayitda kichiklarga va umuman, shunday hadyaga munosib ko'riladigan kishilarga beriladigan pul, narsa; hayitlik.<sup>2</sup>

*Hayitlik* Kimsaga hayit munosabati bilan qilinadigan sovg'a (pul, kiyim-kechak va sh.k.)<sup>3</sup>

*Hayit* Vafotiga yil to'lmagan kishini hayit kunlari yo'qlab aza tutish, eslash marosimi; ma'raka.<sup>4</sup> Shuningdek, mazkur etnografizm "*hayit munosabati bo'lajak kelinga kuyovning ota-onasidan yoki yangi kelinchaklarga ota-onasi tomonidan jo'natiladigan turli kiyim-kechak, qand-qurs, meva-cheva va sh.k. iborat yo'qlov*" ma'nosida ham qo'llanadi.

Diniy bayramlardan biri mavliddir.

Sh.Rahmatullaev fikricha, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *mavlid* so'zi xato ravishda *mavlud* yozilgan, vaholanki, *mavlud* so'zi tamoman boshqa ma'noni anglatadi.<sup>5</sup>

*Mavlid* so'zi tarixiy-etimologik manbasiga ko'ra arabcha bo'lib, "*dunyoga keltirdi*" ma'nosini anglatuvchi *valada* fe'lidan<sup>6</sup> yasalgan ot bo'lib, arab tilida "*tug'ilgan joy*", "*vatan*", "*payg'ambarning tug'ilgan vaqti*" kabi ma'nolarini anglatadi<sup>7</sup>, o'zbek tiliga bu "*Muhammad payg'ambarning tug'ilgan kuni bilan bog'liq bayram*" ma'nosida, ya'ni geortonim sifatida qo'llanadi. Mavlud rabilulavval oyining 12-kuni nishonlanadi. Musulmon mamlaktlarida mavlid kuni duolar, payg'ambar sha'niga madhiyalardan iborat she'rlar o'qiladi, sadaqalar beriladi, ruhoniylarning yig'ilishlari o'tkaziladi.<sup>8</sup>

O'zbek so'zlashuv nutqida bu so'z *movlud, mavlud* fonetik variantlarida talaffuz qilinadi.

Mazkur geortonim diniy manbalarda *Mavlid an-nabiy* shaklida qo'llanadi.

O'zbekistonda geortonim bilan bog'liq *mavlid // mavlud, mavlidlik // mavludlik* etnografizmlari ham shakllangan.

Dehqonlar aynan shu kuni dalaga qo'sh chiqarib, dastlabki urug'ni yerga qadaganlar. O'zbek xalqi yerga urug' qadash munosabati bilan *qo'sh chiqarish, shoxmoylar, ekin sayli, qo'shoshi* kabi marosimlarni o'tkazgan. yerni haydashdan oldin ho'kizlarning shoxlari va bo'yinturug'ini yog' bilan moylaganlar. Keksa otaxonlarning ta'kidlashlaricha, mazkur odat zamirida ho'kiz yil bo'yi hormay-tolmay ishlasin, degan niyat mujassamlashgan ekan. Demak, Navro'z geortonimi bir qancha etnografizmlarni yuzaga kelishiga ham lisoniy va madaniy asos bo'lgan.

<sup>1</sup>Qarang.Худойберганава Д. Лингвокультуроология терминларининг қискача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2015. – Б.26.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б. 184.

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б. 184.

<sup>4</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б. 484.

<sup>5</sup> Қаранг. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 217.

<sup>6</sup> Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1976. – Б. 910.

<sup>7</sup> Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. – I ж. – Б. 152.

<sup>8</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 5-ж. – Б. 343.

Xalqimizning ardoqli bayrami Navro'z ko'plab bahoriy udumlarni, dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq qadimiy marosimlarni, urf-odat va rasm-rusumlarni o'zida mujassam etgan milliy qadriyatdir. Navro'zning xalqonaligi u bilan bog'liq «qozon to'ldi», «hashar», «oxir chorshanba» kabi etnografizmlarda yanada yorqinroq ko'rinadi. Zero, yilboshidan avval, ya'ni o'z poyoniga yetayotgan eski yilning eng so'nggi chorshanba kuni an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan «oxir chorshanba» (Navro'zdan avval eski yilning oxirgi chorshanba kuni tabiatdan mo'l hosil tilash va ezgulikni ulug'lashga qaratilgan olov kulti bilan aloqador ko'cha va maydonlarda gulxanlar yoqib, uni ustidan sakrash) udumi ham o'zbek xalqi uchun muhim maishiy-ijtimoiy ahamiyatga ega.<sup>9</sup>

Sharq xalqlarining qadimiy an'anasiga ko'ra, Navro'z bayrami hut oyining oxirgi kechasi, ya'ni 20-martdan 21-martga o'tar kechasi oila davrsida o'tkaziladigan «qozon to'ldi» (tansihatlik, farvonlik, baraka tilab, har yili Navro'z arafasida qozonlarni to'ldirib, jamoaviy va oilaviy bayramona tansiq taomlar pishirish) udumi bilan boshlangan. Ko'rinadiki, bayram bilan bog'liq etnografizmlarda o'zbekona diniy e'tiqod, bag'rikenglik, yutga, tabiat va mehnatga ehtirom yorqinligi bilan ham lingvomadaniy mohiyatga ega.

Biz o'zbek tilidagi to'y bilan bog'liq lingvomadaniy birliklarning lingvomadaniy tahlilini berishga harakat qildik.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I. – 679 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. II. – 671 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. III. – 687 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. IV. – 606 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. V. – 591 б.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 1-ж.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 5-ж.

<sup>9</sup>Жўраев М. Наврўз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.73.